



XORAZM VILOYATI STATISTIKA  
BOSHQARMASI

# XORAZM VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI


2021-yil yanvar-mart



## XORAZM VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT (dastlabki ma'lumot)

### Doimiy aholi soni.


Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1- aprel holatiga 1 898,8 ming kishini tashkil etib, 2021- yil boshidan 5,5 ming kishiga yoki 0,3% ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 628,6 ming kishini ( jami aholi sonidagi ulushi 33,1 %), qishloq aholisi soni 1 270,2 ming kishini (66,9 %) tashkil etdi.




**Doimiy aholi sonini hisoblanishi** hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davridagi tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini qo'shib, o'lganlar va ko'chib ketganlar sonini ayirib tashlash natijasida hosil bo'ladi.




### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra)






### Shahar va tumanlar kesimida aholi soni (yanvar - mart, ming kishi)



### Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021-yil 1-aprel holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %)






## Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi soni (1-aprel holatiga)


	2020-y.	2021-y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1872,1</b>	<b>1898,8</b>	<b>101,4</b>
Urganch sh.	144,2	145,3	100,8
Xiva sh.	92,4	94,0	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	164,3	167,1	101,7
Gurlan	148,1	149,9	101,2
Qo'shko'pir	172,0	174,1	101,2
Urganch	198,4	202,2	101,9
Hazorasp	248,6	195,7	78,7
Tuproqqa'l'a	-	56,3	-
Xonqa	186,1	188,8	101,5
Xiva	145,2	147,5	101,6
Shovot	169,7	172,1	101,4
Yangiariq	115,9	117,5	101,4
Yangibozor	87,2	88,3	101,3

Viloyat kesimidagi tahlillarga ko'ra, 2021- yil 1- yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Urganch tumanida qayd etilib, viloyat aholisi sonidagi ulushi 10,6 % ni tashkil etgan, keyingi o'rinnlarda Hazorasp tumanida -10,3 %, Xonqa tumanida - 9,9 % va Qo'shko'pir tumanida - 9,2 % ni tashkil etgan.

### Tug'ilganlar soni (2021- yil yanvar-mart holatiga, kishida)




### Tug'ilganlar koeffitsiyenti (yanvar-mart holatiga, promille)




*Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm. va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*



### Vafot etganlar soni (2021- yil yanvar-mart holatiga, kishida)





### Vafot etganlar koeffitsiyenti (yanvar-mart holatiga, promille)




2021- yil yanvar-mart oylarida **2 129** ta vafot qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,6** promilleni tashkil etdi hamda 2020-yilga nisbatan **0,5** promillega oshganligi kuzatildi (2020-yilda **4,1** promilleni tashkil etgan).



### Tuzilgan nikohlar soni (2021- yil yanvar-mart holatiga, kishida)




### Tuzilgan nikohlar koeffitsiyenti (yanvar-mart holatiga, promille)




2021- yil yanvar-mart oylarida **4 692** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh koeffitsiyenti **10,0** promilleni tashkil etdi hamda 2020-yilga nisbatan **0,8** promillega kamayganligi kuzatildi (2020- yilda **10,8** promilleni tashkil etgan).



## Nikohdan ajrashganlar soni (2021- yil yanvar-mart holatiga, kishida)




## Nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti ( yanvar-mart holatiga, promille)




2021- yil yanvar-mart oylarida **356** ta nikohdan ajrashganlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **0,8** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilga nisbatan **0,2** promillega oshganligi kuzatildi (**2020- yilda 0,6 promilleni tashkil etgan**).

**Shahar va tumanlar kesimida go'daklar o'limi soni  
(2021- yil yanvar-mart holatiga, kishida)**




**O'lim koeffitsiyentlari to'g'risida ma'lumot  
(2021- yil yanvar-mart, promille)**



Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 65,5 % - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 10,6 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 14,8 % - tug'ma anomaliyalardan, 7,0 % - yuqumli va parazitar kasalliklardan va 2,1 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi



(2021- yil yanvar-mart holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, % da)




Kasallik sabablari		2021-yil yanvar-mart, %
	Qon aylanish tizimi kasalliklari	59,9 %
	O'simtalari	9,1 %
	Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan	4,6 %
	Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari	4,7 %
	Nafas olish a'zolari kasalliklari	5,2 %
	Yuqumli va parazitar kasalliklari	1,1 %
	Boshqa kasalliklar	15,4 %



### Ko'chib kelganlar soni (2021- yil yanvar-mart holatiga, kishida)




### Ko'chib kelganlar koeffitsiyenti (yanvar-mart holatiga, promille)




2021- yil yanvar-mart oylarida **4 478** ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ko'chib kelganlar koeffitsiyenti **9,6** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilga nisbatan **6,1** promillega oshganligi kuzatildi (2020- yilda **3,5** promilleni tashkil etgan).



### Ko'chib ketganlar soni (2021- yil yanvar-mart holatiga, kishida)



### Ko'chib ketganlar koeffitsiyenti (yanvar-mart holatiga, promille)



2021- yil yanvar-mart oylarida **5127** ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ko'chib ketganlar koeffitsiyenti **11,0** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilga nisbatan **6,6** promilleiga oshganligi kuzatildi (**2020- yilda 4,4 promilleni tashkil etgan**).



## Aholi migratsiyasi

*ming kishi*

	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	1,6	4,5
Ko'chib ketganlar	2,0	5,1
Migratsiya saldosi	-0,4	-0,6

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Hazorasp (minus 1,2 ming kishi), Xiva (minus 0,4 ming kishi), Shovot (minus 0,2 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Tuproqqa'l'a tumanida (plus 1,0 ming kishi ), Urganch tumanida ( plus 0,4 ming kishi) kuzatildi.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Demografiya va mehnat

statistikasi bo'limi

tel : (62)2246508